



PEDAGOGIK JAMOADAGI NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING USULLARI

Uchtemirova Bibimarjona Uchtemir qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jamoalarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning turlari, sabablari va salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. jamoada sog'lom va samarali muhit yaratish uchun muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, boshqaruv uslubini optimallashtirish va qonunchilik talablariga rioya qilishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik jamoa, kelishmovchiliklar, muammolarni hal qilish, muzokaralar, kelishuv, kommunikatsiya, jamoaviy ish, ish muhiti, stress, shaffoflik, ta'lim siyosati, seminarlar, pedagogik etika

Ключевые слова: Педагогический коллектив, разногласия, решение проблем, переговоры, соглашение, общение, командная работа, рабочая среда, стресс, прозрачность, образовательная политика, семинары, педагогическая этика.

Keywords: Pedagogical team, agreements, problem solving, negotiations, agreement, communication, teamwork, work environment, stress, transparency, educational policy, seminars, pedagogical ethics

Hozirgi kunda nizolarni samarali bartaraf etish pedagogik jamoadagi psixologik muhitni emotsional yaxshilashga qaratilganligi, hamkorlikda ishlash samaradorligini oshirishni ta'minlash garovi ekanligi hech kimga sir emas. Shu boisdan pedagogik faoliyatdagi va umuman nizolar haqida zaruriy ma'lumotlarga



ega bo‘lish foydadan holi bo‘lmaydi. Nizolarni buzg‘unchilik oqibatlarini muvaffaqiyatli hal etish ularni atroflicha o‘rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yuqori darajada rivojlanganligi va iliq ijtimoiy psixologik muhitga ega bo‘lishi orqali erishiladi. Dastlabki nizo haqidagi konsepsiyalar XIX-XX asrlarda vujudga kelib, asosiy nizo va uning yechimlarini topish yo‘llari bo‘yicha qo‘yilgan qadamlar o‘tgan asrning oxirlarida salmoqli o‘rin tutadi¹. Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V.O.Ageev (1990), A.A.Bodalev (1983), V.I.Juravlev (1983), N.N.Obozov (1979), I.A.Kon (1997), Ya.A.Ansupov, A.I.Shipilov (2000), F.M.Borodkin (1989), A.K.Zaysev (1992, 1993), A.G.Zdravomislov (1995) va shu kabi boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritiladi. Nizo (lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “to‘qnashish”) – maqsad, qiziqish pozitsiyalar, fikrlar, qarashlar, kishilarning o‘zaro ta’sirlashuvdagi qarama – qarshi yo‘nalishlar bo‘yicha to‘qnashishlardan iborat. Har qanday nizoning asosida qaysidir ma’noda maqsad va manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar yotadi. Jamoadagi nizoni tabiatini yoritishdan oldin uning ikkita xarakterli jihatini inobatga olishimizga to‘g‘ri keladi. Birinchisi nizo va ikkinchisi nizoli vaziyatdir. Ko‘pgina adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyat ajratib turuvchi quyidagi formulani e’tiborga olish muhim deb hisoblaymiz:

$$\text{Nizo} + \text{Muammo} + \text{Nizoli vaziyat} + \text{Nizo ishtirokchilari} + \text{Insident.}^2$$

Bundan ko‘rinyaptiki nizo nizoli vaziyat va u bilan bog‘liq boshqa bir qator ahamiyatga ega elementlarni birlashtirishini guvohi bo‘lish mumkin. Pedagogik jamoadagi nizolarni tahlil etish va uni hal etish zarurat tug‘ilganda nizo tarkibidagi har bir elementni o‘rnini aniq baholashga to‘g‘ri keladi. Nizolarni vujudga kelishi va uni oldini olishda yuqorida taqdim qilingan formulaga alohida e’tibor qaratish

¹ Goziev E. Umumiy psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Tashkent, 2010

² Bryazgunov I.P., Kuchma V.R. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey. - M.: Institut psixoterapii, 1994. 43str.



ma'qul. Psixologik muhit guruhiy manfaatlarni qondirish, shaxslararo va guruhiy nizolarni hal etishdagi amalga oshirilayotgan muloqotda vujudga keladi va namoyon bo'ladi. Shu bois ushbu munosabatlar tafovutli xarakterga egaki, ular ba'zan do'stona, hamkorlik, musobaqa yoki raqobat, hamjihatli yoki uyaltirib qo'yish, qo'pollik yoki ongli tartib-intizom tarzida gavgdalanadi. Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'zaro ta'sirlashuvi ko'pchilik holatlarda to'rtta asosiy ta'sir ko'rsatish usuli orqali amalga oshiriladi: e'tiqod, taqlid, ta'sir, majburlash. Ta'kidlab o'tilgan usullardan ham ma'lumki pedagogik jamoadagi o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv formalarida ham ular o'z aksini topishi tabiiy. Chunki ba'zi holatlarda, o'qituvchi tomonidan berilayotgan topshiriq va vazifalarning berilishi ta'lim oluvchilarning dunyoqarashiga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi tabiiydir³.

Pedagogik nizolarni muvaffaqiyatli hal qilish odatda muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, uni hal qilish bo'yicha harakatlar va natijalarni baholash siklini o'z ichiga oladi. Har qanday aniq bir vaziyatda nizolarni hal qilish bo'yicha siyosatni ishlab chiqishga kirishishdan avval ularning manbalarini aniqlash zarur.

Har qanday jamoa singari, pedagogik jamoada ham turli xil nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bu nizolar o'qituvchilar, ma'muriyat va boshqa xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda, shuningdek, ta'lim jarayonining turli jihatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Pedagogik jamoada nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali bartaraf etish ta'lim sifatini oshirish va ijobiy ish muhitini yaratish uchun juda muhimdir.

Pedagogik jamoa – bu murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, unda turli xil shaxslar, ularning qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari birlashadi. Bunday muhitda nizolar

³ Zavadenko N.N. Kak ponyat rebenka: deti s giperaktivnostyu i defitsitom vni-maniya. // Lechebnaya pedagogika i psixologiya. Pril. k. jurnalu «Defektologiya».



paydo bo'lishi tabiiy holat hisoblanadi. Ammo, nizoli vaziyatlarning samarali boshqarilmasligi pedagogik jamoaning ishlash samaradorligiga, o'quv jarayonining sifatiga va umuman olganda, ta'lim muassasasining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlarning sabablari, oqibatlar va ularni hal qilish yo'llari muhokama qilinadi⁴.

Pedagogik jamoadagi nizolar turli omillar natijasida yuzaga kelishi mumkin:

Shaxsiy munosabatlar: Jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy ziddiyatlar, noto'g'ri tushunish, shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi nizoli vaziyatlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Bu yerda, turli xarakterdagi odamlarning birgalikda ishlashi, ularning temperamentlari va munosabatlaridagi nozikliklar muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammolar: Ish yukining notekis taqsimlanishi, mas'uliyatning noaniqligi, resurslar yetishmasligi, baholab baholashdagi adolatsizlik yoki o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq kelishmovchiliklar nizolarga olib kelishi mumkin.

Boshqaruv uslubi: Avtoritar boshqaruv uslubi, jamoa a'zolarining fikr-mulohazalari hisobga olinmasligi, qarorlar qabul qilishda shaffoflikning yo'qligi nizoli vaziyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Demokratik boshqaruv uslubi esa, jamoa a'zolarining faol ishtirokini ta'minlab, nizolarni oldini olishga yordam beradi.

Qonunchilik va normativ hujjatlarning noaniqligi: O'quv jarayonini tashkil etish, pedagoglarning huquq va majburiyatlarini belgilash bilan bog'liq qonunchilik va normativ hujjatlardagi noaniqliklar nizoli vaziyatlarning paydo bo'lishiga turtki bo'lishi mumkin.

⁴ Goziev E. Umumiy psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Tashkent, 2010



Kommunikatsiya muammolari: Jamoa a'zolari o'rtasidagi samarali kommunikatsiyaning yo'qligi, fikr-mulohazalarni ifodalashdagi qiyinchiliklar, axborot yetishmasligi nizoli vaziyatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Nizoli vaziyatlarning salbiy oqibatlari ko'p jihatdan namoyon bo'ladi:

Ish samaradorligining pasayishi: Nizolar o'quv jarayoniga, pedagoglarning ish faoliyatiga va ta'lim muassasasining umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamoaviy ruhning pasayishi: Nizoli vaziyatlar jamoa a'zolari o'rtasidagi ishonchni yo'qotadi va jamoaviy ruhning pasayishiga olib keladi.

Stress va ruhiy zo'riqish: Nizolar pedagoglarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, stress va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradi.

Kadrlar aylanmasining oshishi: Nizoli vaziyatlar pedagoglarning ishdan bo'shatilishiga yoki boshqa ta'lim muassasalariga o'tishlariga olib kelishi mumkin.

O'quvchilarga salbiy ta'sir: Jamoada mavjud bo'lgan nizolar o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Nizoli Vaziyatlarni Hal Qilish Yo'llari:

Pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlarni hal qilish uchun quyidagi strategiya va usullardan foydalanish mumkin:

Profilaktika: Nizoli vaziyatlarning oldini olish uchun samarali kommunikatsiya tizimini yaratish, ish yukini adolatli taqsimlash, jamoa a'zolarining fikr-mulohazalari hisobga olinishi lozim. Muntazam ravishda jamoa yig'ilishlarini o'tkazish va ochiq muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.



Mediasiya: Nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda, neytral tomon - mediator yordamida muammoni hal qilishga harakat qilish kerak. Mediator jamoa a'zolari o'rtasida muloqotni o'rnatadi va kelishuvga erishishga yordam beradi⁵.

Kompromiss: Har ikkala tomonning manfaatlarini hisobga olgan holda kelishuvga erishishga harakat qilish kerak. Kompromiss topish ikki tomon uchun ham maqbul bo'lgan yechimni topishni bildiradi.

Boshqaruv uslubini optimallashtirish: Demokratik boshqaruv uslubi, jamoa a'zolarining ishtiroki va fikrlarini inobatga olish nizolarni oldini olishga yordam beradi.

Qonunchilik va normativ hujjatlarning aniqligi: O'quv jarayonini tashkil etish, pedagoglarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash nizolarni kamaytirad

Pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali hal qilish ta'lim muassasasining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Bu esa, samarali boshqaruv, ochiq kommunikatsiya, jamoaviy yondashuv va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Doimiy ravishda jamoaviy munosabatlarga e'tibor berish va proaktiv yondashuv nizoli vaziyatlarni kamaytirish va sog'lom ish muhitini yaratishga yordam beradi.

Pedagogik jamoada nizolar turli omillar natijasida yuzaga kelishi mumkin:

Shaxsiy munosabatlar: O'qituvchilar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardagi muammolar, shaxsiy qarashlar farqi, raqobat va ishonchsizlik nizolarga olib kelishi mumkin⁶.

⁵ M.: «Shkola –Press», 2000.112 s.

⁶ Bryazgunov I.P., Kuchma V.R. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey. - M.: Institut psixoterapii, 1994. 43str.



Ish yuklamasi va resurslarning yetishmasligi: Katta ish yuklamasi, o'quv materiallari, texnika va boshqa resurslarning yetishmasligi o'qituvchilar o'rtasida stress va norozilikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ta'lim siyosati va qoidalari: Ta'lim siyosati va qoidalaridagi noaniqliklar, ularning adolatsiz qo'llanilishi o'qituvchilar o'rtasida nizolarga olib kelishi mumkin.

Ma'muriyat bilan munosabatlar: Ma'muriyat bilan o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar, qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, qarorlar qabul qilishda shaffoflikning yo'qligi nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'quvchilar bilan bog'liq muammolar: O'quvchilarning tarbiyasi, o'qitish uslublari va baholovchi tizimlarga oid kelishmovchiliklar ham o'qituvchilar o'rtasida nizolarga olib kelishi mumkin⁷.

Nizoli vaziyatga tushib qolib o'qituvchi o'zining faolligini yoki suhbatdoshini yahshiroq tushunishga yoki nizoni bostirish yoki uni oldini olish maqsadida o'z psixologik holatini boshqarishga qaratishi mumkin. Birinchi holatda nizoli vaziyatni hal qilishga insonlar orasidagi bir-birini tushunishlarini yo'lga qo'yish, anglashilmovchiliklarni, kelishmovchiliklarni yo'qotish yo'li bilan erishiladi. Umuman olganda, boshqa insonni tushunish ancha murakkab. Tajribali pedagoglar nimani gapirishni (dialogda mazmunini tanlash), qanday gapirishni (suhbatni emotsional tusda olib borish), bolaga qaratilgan nutqda maqsadga erishish uchun qachon gapirishni (vaqti va o'rni), kimning oldida va nima uchun gapirishni (natijaga ishonch) biladi.

⁷ M.: «Shkola –Press», 2000.112 s.



Xulosa: Pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali bartaraf etish ta'lim jarayonining samaradorligi va pedagogik jamoa a'zolarining psixologik farovonligi uchun juda muhimdir. O'zaro hurmat, ochiq muloqot, samarali kommunikatsiya va muammoni hal qilishning konstruktiv usullarini qo'llash orqali nizolarni bartaraf etish va ijobiy ish muhitini yaratish mumkin. Muntazam ravishda treninglar va seminarlar o'tkazish, shuningdek, jamoaviy qurilish tadbirlari pedagogik jamoaning birdamligini mustahkamlash va kelishmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bryazgunov I.P., Kuchma V.R. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey. - M.: Institut psixoterapii, 1994. 43str.
2. Zavadenko N.N. Kak ponyat rebenka: deti s giperaktivnostyu i defitsitom vni-maniya. // Lechebnaya pedagogika i psixologiya. Pril. k. jurnal «Defektologiya». №
3. Goziev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Toshkent "O'qituvchi", 1994.
4. Goziev E. Umumiy psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Tashkent, 2010
5. – M.: «Shkola –Press», 2000. 112 s
6. www.fvv.uz
7. www.aim.uz
8. www.ziyonet.uz

⁸ Goziev E. Umumiy psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Tashkent, 2010